

BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA YOZMA NUTQNI O‘STIRISH VA KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH

Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs talabasi

M.A. Hamrayev

Ilmiy rahbar:

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi
kafedrasi professori v.b. filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozma nutqni o‘stirish tushunchasi, o‘quvchilarni yozma nutqdagi kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha fikr yuritilgan, ona tili darslarida nutq o‘stirishning shakl va vositalari, nutq o‘stirishda va kamchiliklarni bartaraf etishda noan‘anaviy usullardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nutq, yozma nutq, nutq o‘stirish, so‘z, so‘z boyligi, erkin fikrlash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается концепция развития письменной речи, рассматриваются способы устранения недостатков письменной речи учащихся, формы и средства развития речи на занятиях родным языком, обсуждается использование нетрадиционных методов в речевом развитии и устранении дефектов.

Ключевые слова: речь, письменная речь, развитие речи, слово, словарный запас, свободное мышление.

ABSTRACT

The article discusses, the concept of developing written speech, ways to eliminate the shortcomings of students' written speech, forms and means of speech development in the lessons of the native language, the use of non-traditional methods in speech development and elimination of defects is discussed.

Keywords: speech, written speech, speech, development, word, vocabulary, free thinking.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish,
eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni
talab qiluvchi muloqot shakllarini
rivojlantiruvchi demakdir. (A.A.Leontyev).

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishining, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilini talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi, shuning uchun ham grammatik va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarini o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari: "Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish", "O'qish va nutq o'stirish", "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" deb nomlagan.

Ona tili fani maktab yoshidagi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'z g'alar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizmini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Yozma nutqni o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida izlanish.
- 2) so'z birikmasi va gap ustida izlanish.
- 3) bog'lanishli nutq ustida izlanish.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o'quvchilarning uyda, ko'chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qozoq, qirg'iz va boshqa (sheva) tilida so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko'p turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar yashaydi. Ularning ko'pchiligi uyda tojik, qirg'iz va hokazo tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishadi. Bu hol, shubhasiz, o'quvchilarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o'tilgan salbiy omillardan tashqari ona tilimizdan, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va

mazmun jihatdan bo'shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, otanalarning bola nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkonoyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularning nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman. "Hikoya" O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafosat, yomg'ir, soat va adabiyot kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar va shu metod va o'yinlar o'quvchilar nutqining o'sishiga yordam beradi.

Yozma nutqdagi nuqsonlar harflar shaklini noto'g'ri idrok etishga aloqador bo'lishi ham mumkin. Bunda o'quvchi yozilishi jihatdan o'xshash harflarni, ularning elementlarni adashtirib yuboradi. L.F. Spirova va A.V. Yastrebovalar boshlang'ich maktab o'quvchilari nutqida kuzatiladigan yozma nutqdagi kamchiliklarni butun nutq sistema ustida uch boshqichda ish olib borish orqali bartaraf etishni tavsiya etadilar. Birinchi bosqichda fonetika-fonematik komponent ustida quyidagi ishlarni o'tkazish ko'zda tutiladi:

1. So'zning tovushlardan tuzilishi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;
2. Fonematik o'quv hamda analiz-sintez malakalarini rivojlantirish;
3. Talaffuz kamchiliklarini bartaraf etish.

Birinchi boshqichda o'quvchilar diqqati, xotirasini rivojlantirish, ularni o'z-o'zini boshqarish, tekshirib borishga o'rgatish, savollarga aniq, to'liq javob berishga o'rgatish talab etiladi. Ikkinchi bosqichda leksiko-grammatik kamchiliklarni bartaraf etish, eshitish idrokini rivojlantirish ishlari olib boriladi. Uchinchi bosqichda o'rgatilgan tovushlarni mustahkamlash, ularni o'quvchi nutqiga kiritish, analiz qilish malakalarini rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Shunday qilib, yozma nutqdagi kamchiliklar nihoyatda murakkab nutq nuqsonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kamchiliklarning oldini olish ishlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilishi darkor. Bundan bolaning og'zaki nutqini o'stirish fazoviy idrokini, xotirasi, diqqati, analiz va sintez qilish faoliyati, nutqini tahlil qilish, lug'at ustida ishlash, grammatik komponentini rivojlantirish, og'zaki nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, nozik qo'l harakatlarini rivojlantirish ayniqsa muhimdir.

Turli xil metod va o'yinlardan foydalanish samaralidir. Masalan, "O'zaro bog'liqlik" metodi. O'quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi buyum haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu

olma daraxti. Olma bog‘da o‘sadi va mevaga kiradi. Uning mevasisni siz o‘quvchilar juda yaxshi ko‘rasiz. Keyin ikkinchi o‘quvchi ham o‘zidagi buyum haqida gapiradi va o‘zidagi buyum bilan birinchi o‘quvchidagi buyumni o‘zaro bog‘liqligini aytishi kerak bo‘ladi. Masalan: “Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi”. Keyin uchinchi o‘quvchi o‘zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi o‘quvchidagi predmet bilan o‘zidagi predmet orasidagi bog‘liqlikni topishi kerak. O‘yin shu tartibda davom etadi.

Xulosa qilib aytganda, bundan tashqari, mazkur o‘yinlardan foydalanganda o‘quvchilarning nutqi, lug‘at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi va nutqdagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarini o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o‘stirishga yo‘naltirilgan har bir mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g‘oyasi bevosita ta’lim jarayonida o‘z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o‘zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.D.R.Babayeva .”Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”Toshkent 2018-yil
- 2.Q.Shodiyeva .”Nutq o‘stirish” O‘qituvchi : 2008-yil
- 3.Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi.Toshkent 2022-yil
- 4.Karimova V.M,Sunnatova R.I,Tojiboyeva R.N,Mustaqil fikrlash.-T.Sharq,2000.
- 5.Muhiddinov A.G‘.O‘quv jarayonida nutq faoliyati.-T.O‘qituvchi,1995.